

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7263590>



ELSEVIER

**Axmedov Akmal Yusufovich**

*FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

**Orziqulova Madinabonu Qudratali qizi**

*FarDU Pedagogika-psixologiya fakulteti*

*1-kurs talabasi*



Received: 22-10-2022  
Accepted: 22-10-2022  
Published: 22-10-2022

**Abstract:** Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirish, shaxsga xos kreativlik sifatleri hamda o'quvchi shaxsi, yoshga xos bo'lgan psixologik xususiyatlar, qobiliyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, shaxsning rivojlanish omillari, motivatsion omil, qobiliyat va intellektual-ijodiy faoliyatni o'rganish, idrok qilish, tahlil qilingan.

**Keywords:** kreativlik, kompetentlik, tajriba-sinov, shaxsning rivojlanish omillari, motivatsion omil, qobiliyat, qiziqish, extiyoj, idrok qilish, faoliyat.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-10-2022  
Accepted: 22-10-2022  
Published: 22-10-2022

**Abstract:** This article is about the results of experience-tests related to the development of creative competence of future teachers, personal creativity qualities and student personality, age-specific psychological characteristics, abilities, interests, needs, personality development factors, motivational factor, ability and intellectual-study, perception, analysis of creative activity.

**Keywords:** creativity, competence, experience-testing, personality development factors, motivational factor, ability, interest, desire, perception, activity.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Dunyoda trendlar doim va tez-tez o'zgarib turadi. Bu trendlar ta'limga, o'qishga va ishga kirish jarayoniga va albatta siz va mening hayotimga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. XXI asrda o'ta yuqori darajada rivojlangan va juda ko'plab an'analarni o'zgartirib yuborayotgan trend bu-kreativlik.

**Kreativlik-** Olim Y. Torrens ta'kidlashicha chuqurroq qidirish, e'tiborliroq qarash, xatolarni to'g'irlash, mushuklar bilan suhbatlashish, chuqurlikka sho'ng'ish, devorlar ichra o'tish, quyoshni yoqish, qumdan qasrlar qurish, kelajakka sayohat qilishdir

Ayrim kasb egalarining bajargan ishlarida, shubhasiz, kreativlikning eng betakror namunalarini kuzatamiz. Agar kreativ fikrlash bo'lmaganda edi, ibtidoiy odamlar olovni, Tomos Edison elektr lampasini, Leonardo da Vinchi Monna liza asarini yaratmagan bo'lar edi. Aynan kreativlik yangi va foydali biror narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi muhim biror narsa, (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu

kreativlikdir. Chunki XXI asrga kelib, insoniyat o'zi uchun kerakli va hammaning hayoliga deyarli barcha narsani yaratib bo'ldi.

E'tibor bering, ayni vaqtda muvaffaqiyatga erishgan juda ko'plab shaxslar, bir necha asrlar avval insonlar tasavvur ham qila olmagan g'oyalarni amalga oshirgani tufayli shu darajaga chiqishgan. Jeff Bezos, online do'kon trendi orqali mashhur bo'ldi. Bu trend O'zbekistonga endi kirib kelmoqda. Umuman online do'kon tushunchasi yaqin 50 yil ichida paydo bo'lgan. Undan avval odamlar tasavvur ham qila olmagan.

Demak, bundan shuni anglash mumkinki, kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishingiz yo'lida asosiy vositalardan biri.

**Kompetentlik tushunchasining mohiyati.** Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'yuritiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki, har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini domo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

**Kasbiy kompetentlik quyidagi hollarda yaqqol namoyon bo'ladi:**

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

**Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:**

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;

- yangi bilimlarni izlab topadi;ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

**Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.**

**1.Ijtimoiy kompetentlik** - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqatga kirisha olish.

**2.Maxsus kompetentlik** - kasbiy- pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona ahl qilish, faoliyati natijalarini real baholash,BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, information, kreativ, inovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

**1.Psixologik kompetentlik** - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**2.Metodik kompetentlik** - pedagogik jarayonni metodik jihardan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash,metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish,metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

**3.Informatsion kompetentlik** - axborat muhitida zarur,muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

**4.Kreativ kompetentlik** - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga ega ekanligini namoyish eta olish;

**5. Innovatsion kompetentlik** - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

**6.Kommunikativ kompetentlik** - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish,ularga ijobiy ta'sir ko'sata olish.

**Pedagogik kreativlik** (ijodkorlik) - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivijlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyaiga egaligi bilan bog'liq.Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish,

ilmiy- tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

### XULOSA

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'nash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

### REFERENCES

1. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7)*.
2. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7)*.
3. Ахмедов, А. Ю. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences, (4), 778-781*.
4. Ахмедов, А. Ю. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛГАН КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8)*.